

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2023 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)

[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

<b>BOSH MUHARRIR</b> Shuhrat Sirojiddinov	<b>MUNDARIJA</b>	
<b>BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI</b> Karomat Mullaxo'jayeva (o'zbek) Ziyoda Teshaboyeva (ingliz)	<b>MATNSHUNOSLIK</b>	
<b>MAS'UL KOTIB</b> Ozoda Tojiboyeva	<b>Rashid Zohidov</b> Ilmiy-tanqidiy matn mashaqqati	4
<b>TAHRIR HAY'ATI</b> Zaynobiddin Abdirashidov Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibbeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Kamol Abdulla (Ozarbayjon) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Eunkyung Oh (Koreya) Mark Toutant (AQSh) Boqijon To'xliyev Qosimjon Sodiqov Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Vali Savash (Turkiya) Kimura Satoru (Yaponiya) Hamidulla Dadaboyev Aftondil Erkinov Rashid Zohidov Baxtiyor Abdushukurov Dilnavoz Yusupova Qo'ldosh Pardayev Otabek Jo'raboyev Nodirbek Jo'raqo'ziyev	<b>Shermuhammad Amonov</b> Tabibiy debochalari	16
	<b>Sohiba Madirimova</b> Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari	40
	<b>ADABIYOTSHUNOSLIK</b>	
	<b>Orzigul Hamroyeva</b> Qofiya harflarining nazariy asoslari tadqiqi	67
	<b>Alisher Razzoqov</b> "Lison ut-tayr" - kompozitsiyasi va obrazlari uyg'unligi	93
	<b>LINGVISTIKA</b>	
	<b>G'aybulla Boboyorov</b> Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarining o'zbekcha o'girmalaridagi ayrim yanglish ochiqklamalar to'g'risida	111

## Tabibiy debochalari

Shermuhammad Amonov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Odatda, devonlarning kirish qismida muallif tomonidan, ba'zan boshqalar tomonidan maxsus yoziladigan so'zboshi (muqaddima)lar – debochalar yozilgan. Bunda devon yoki muayyan majmuani tuzilishiga sabab bo'lgan omillar, to'plamning tuzilishi yoki tarkibiga oid ma'lumotlar, muallifning uzrxohligi va duoyu iltimosi o'z aksini topadi. Tabibiy ham "Munisu-l-ushshoq" devonida ana shunday mazmunda debocha yozgan. Ushbu debocha matni shu paytgacha to'liq tabdil etilmagan. Umuman, debochalar shoir adabiy-estetik olamini aniqlashda muhim hisoblanadi.

Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devoni hajman yirik bo'lib, unga mumtoz adabiyotimizning g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, masnaviy-soqiynoma, ruboiy, qasida, shiru shakar, varsoqi kabi she'r namunalari kiritilgan.

Ushbu maqolada Tabibiyning devonlari uchun yozgan debochasi matni haqida mulohazalar bildirilgan va debocha matnining to'liq tabdili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *qo'lyozma, manba, debocha, devon, tazkira, biografiya, janr, nazm.*

### Kirish

O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida Ahmad Tabibiy "Munisu-l-ushshoq" devonining ikkita qo'lyozmasi 6226 va 3461-raqamlari bilan saqlanadi. Bulardan 6226-raqamli qo'lyozma "Munisu-l-ushshoq"ning mukammal varianti hisoblanadi.

Ushbu qo'lyozma manba qalin qora muqovada bo'lib, muqova ustida ham oxirida ham 3 tadan unvon bor. Mazkur manba Ahmad Tabibiyning o'z devonlari uchun yozgan maxsus debochasi bilan boshlanadi. 1<sup>b</sup>-sahifa o'rtasida qizil siyoh bilan "Debochai Tabibiy" deb sarlavha qo'yilgan. So'ng "Bismillohir-Rahmonir-Rahim"

<sup>1</sup> Amonov Shermuhammad Normurotovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** shermuhammad1106@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-3962-1774

**Iqtibos uchun:** Amonov, Sh. N. 2023. "Tabibiy debochalari". *Oltin bitiglar* 2: 16–39.

bilan debocha matni keltirilgan. Debocha matni 9<sup>a</sup>-sahifada tugaydi (1-rasm).

Shuningdek, ushbu fondga 8949-raqami ostida saqlanayotgan toshbosma manbada ham Ahmad Tabibiyning ikkita turkiy devoni jamlangan. Bular "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratu-l-oshiqin" devonlaridir. Ushbu manbada toshbosmaning qachon va qayerda bosilgani haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Toshbosma matni ham debocha bilan boshlanadi (2-rasm).

### **Debochada janrlar tafsifi**

Mumtoz she'r nazariyasiga doir manbalarda, jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida she'r janr (nav')lari haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: "*Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she'ring aqsomi, ulkim mo'tabardur, o'n nav' kelibtur: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard*" [Тарозий 1996, 32].

Tabibiy turkiy devonlari debochasida quyidagilarni yozadi: "*Alqissa, "Al ma'muru ma'zurun" hadisi mafhosicha bu xidmati zi saodatni joni ko'ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz'onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim. O'n nav'i nazmkim tashbib, g'azal, mustazod, musammat, ya'ni murabba'dan to muashsharg'acha, tarje'band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard itloq qilurlar. Jam'i o'n rang guldurkim tab'iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog'lab huzuru vofiru-s-sarvarig'a yetkurdum. Hazrati vohibu-l-atoyo va g'ofiru-l-xatoyodin umid qilurmenkim maqbuli tab'i anvari va matbu'i xotiri safoparvari qilg'ay*".

Shayx Ahmadning she'riy janrlar haqidagi fikrlari Tabibiy qarashlari bilan hamohang. Taroziy keltirgan she'r nav'laridan 9 tasini Tabibiy ham qayd etadi. Tabibiy mutavval janrida she'r yozgan bo'lsada, negadir, she'r navlarini sanaganda bahri tavilni qo'shmaydi.

Ma'lumki, bahri tavil she'r shakli Sharq klassik adabiyoti, ayniqsa, turk-o'zbek va forsiy-dariy adabiyotida bir xil ustoz shoirlar tomonidan qo'llanilib kelingan. Ushbu she'riy shaklning tavil bahri deb nomlanishi haqida aniq ma'lumot yo'q. Lekin uning misralari o'ziga xos cho'ziqlikka ega bo'lishi bois, bu ismga mashhur bo'lgani taxmin etiladi. Eski shoirlar uchun tavil bahri, badiiy qobiliyatini sinash uchun bir an'ana bo'lgan. Tavil bahri Sharq mumtoz she'riyatida hajviy, tanziy (kinoya, ta'na qilmoq) va sevgi-muhabbat mavzulari ifodasi uchun qo'llanilgan. Tavil bahri misralarining har bo'lagi son va raqam qo'yish bilan bir-biridan

ajratilgan va har bir satri (misrasi) o'ziga xos qofiyaga ega. Ba'zi adabiyotshunos olimlar tavil bahrini aruziy vaznidan qochish deb taxmin etadilar. Aruz ilmida ham "tavil" bahri mavjud. Lekin ular orasida vazn jihatdan hech qanday aloqa yo'q. Chunki ushbu aruziy vazn arab she'riyatiga xos bo'lgani bois o'zbek she'riyatida kam qo'llanilgan. Aрузiy vaznlardan sanalmish "tavil bahri" aruziy bahrlarning *muxtaliful-arkon* turkumiga kirib (fa'ulun, mafo'ilun, fa'ulun, ma'fo'ilun) ning har misrada bir marta takrorlanishidan hosil bo'ladi [Aminiy 1389/2007, 71-72].

Tabibiy she'r nav'laridan bahri tavilning o'rniga qasidaning kirish qismi bo'lgan – tashbibni keltiradi. Qasidaning muqaddimasi *tashbib* deb atalgan. Tashbibda tabiat manzaralari, sevgi va ishq mavzulari latif va nozik shoirona taxayyul bilan tarsim (surat, rasm) etiladi. Tashbib lug'atda yoshlikni eslatish demakdir. Tashbib adabiy istiloda "tag'azzul" va "nasib" deb ham yuritiladi. Qasidaning ikkinchi qismi (muqaddimadan madh yo zamga o'tish (madu zam – ta'riflamoq yoki yomonlamoq) husni taxallus yo gro'z (qochmoq) deb ataladi. Bunda shoirning asosiy maqsadi zikr etiladi. Uchinchi qismi "sharita" (shart bog'lamoq yoki shart qo'ymoq) deb ataladi [Aminiy 1389/2007, 18-19].

Istiqol yillarida debochalar alohida tadqiqot mavzusi sifatida keng o'rganila boshlandi. Bunday tadqiqotlarning ayrimlarida Ahmad Tabibiyning devonlari uchun yozilgan debochasi yuzasidan ham qisman fikrlar bildirildi [Каримова 2004, 36-37]. Albatta, shoir ijodi tadqiqi bilan bog'liq ishlar e'tiborga loyiq. Biroq shu paytgacha shoirning birorta she'riy devoni to'liq tadqiq etilmadi, ulardan birortasi nashr qilinmadi. Shoir ijodi bilan bog'liq tadqiqotlarda ham Tabibiy asarlari matni ayrim nuqsonlar bilan tabdil qilinmoqda. Mazkur dissertatsion ish va shoirning "Munisul-ushshoq" devoni nashri ayni muammolarni bartaraf etish yo'lidagi ilk urinish ekani bilan ham muhim hisoblanadi.

Shoir devonlarida 5 baytdan 19 baytgacha bo'lgan g'azalardir. Umuman shoir lirik asarlari matnida Qur'on oyatlari, hadisi shariflar, arabcha, o'g'uzcha, fors-tojikcha so'z va so'z birikmalari uchraydi.

"Majmuayi si shuaro'i payravi Feruzshohiy" tazkirasining bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1152-raqami bilan saqlanadi. Ushbu manba matni "*basmla*" va she'riy debocha bilan boshlanadi. Debochani hajmi 300 misrani tashkil etadi. Tazkiradagi ilk nazm 12 baytli masnaviy va Feruzning "*paydo*"

radifli g'azali bilan boshlanadi. Ma'lumki, ushbu manbada shoirning o'z she'rlaridan ham kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tazkira yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ushbu manbani matniy tadqiqi to'la amalga oshirilgani yo'q.

### **Debochada Tabibiy tarjimayi holi tavsifi**

Tazkirada Tabibiy muayyan shoir she'rlarini keltirishdan oldin ijodkor haqida tavsif (masnaviylar) berib o'tadi. Tazkira matnini kuzatar ekanmiz, shoir o'zi haqida quyidagilarni yozadi:

*"Dedi bu g'azalni Tabibiy nazor, Yurub lashkar izida misli g'ubor", "Tabibiy nechuk surgay uzun maqol, Ki bu xayl aro bordur oshufta hol. G'arazkim qilib jahdlar behisob, Bo'lub payravi Xisravi Jam janob", "Tabibiy mahzunu zoru nazor, Ki bori payravi shoh jism iqtidor. Dedi bu g'azalni itoat bila, Duogo'y o'lub sidqi niyat bila", "Tabibiyda yo'q garchi ilmu amal, Vale tobe' o'lmoqg'a topmish mahal. Sanoxon o'lub ushbu dargoh aro, G'azal degali jahd etar borho. Hama nazm ahlinidur sodasi, Oning tab'ining bu erur zodasi", "Tabibiyki bori nazm eli chokari, Demas nazm Haq bo'lmasa yovari. G'araz degusi nazmi laylu nahor, Bo'lub payrav Xisravga komgor".*

Ushbu masnaviylardan ham ko'rinib turibdiki, yuqorida ta'kidlanganidek, Tabibiy tazkirasida ijodkorlarning biografiyasi bilan bog'liq ma'lumotlar berilmagan. Biroq Tabibiy o'zining devonlariga yozgan debochasida, ba'zi bir she'rlarida o'zining ijtimoiy ahvoli haqida ayrim ma'lumotlarni keltiradi. Jumladan, shoir devoni debochasida o'zi haqida shunday yozadi:

*"... Ori fozil kimsa fuzalo va ulamonavoz bo'lub va ilmu ma'rifat kunhiga yetgan kishi ulamo bila suhbat tuzub nuqtaparvoz bo'lg'ay bovujud men ham bu xonadong'a bandai zamim va xizmatga sarafgandai qadim bo'lub aboanjad xonazoda g'ulomi pok e'tiqod erdim.*

#### **Nazm:**

*Otam bu borgahg'a erdi banda,  
Onam bu ostong'a sarfiganda.*

*Bas emdi men erurman xonazoda,  
Bu ikkidin manga nisbat ziyoda.*

*Ne tong faxr aylasam ahli jahong'a,  
Ki bor men bandai shohi komrong'a.*

*Chu men bekasda **qulluq nisbati** bor,  
Jahon ahlini bilkull davlati bor.*

*Angakim yor esa qulluqda mansub,*

*Saodat haylidin bo'lg'usi mahbub.*

*Ammo jahl va nodonlig' kasratidin junun va parishonlig' shiddatidin bu gardunnishon ostonidin yiroq tushdum huzuru g'ofir us-sarvarig'a musharraf bo'lmag'onlig' hasratidin behuzurliqg'a tushdim. Baharhol ushbu g'ussaning dofe'i va bu illatning nofe'i bo'lmoq umidi bila gohi g'azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg'a yetkurub iltifoti shohona va 'atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo'lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig'a manzur va kaminqullar qatorida o'tim mazkur bo'lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz balki hama fozillar ichida mumtoz bo'ldum".*

Ko'rinadiki, shoir ijtimoiy kelib chiqishi haqida *"Chu men bekasda qulluq nisbati bor"* degan fikrni aytadi. Bunday fikrlar shoirning ayrim g'azallarida ham uchraydi. Jumladan, shoir turkiy tilda tuzilgan *"Munisu-l-ushshoq"* devoni debochasida o'zini *"Nokomlig' bodasining sargardonini va beoromlig' zoviyasining majnuni hayroni ahqaru-l-ibod mulku-s-samad va aqsari umam hazrati Muhammad ibn hoji Ali Muhammad almutaxallis bit-Tabibiy Ahmad g'afarollohu zunubahumo va satara uyubohumo o'z ahvolidin bu nav' ajz va qusur bila takallum surar"*, - tarzida tanishtiradi.

Mazkur devonning bir necha o'rnida shoir o'zining ijtimoiy ahvoli bilan bog'liq ayrim baytlarni keltiradi. Jumladan, devonning 71-g'azalida *"Mani bechora miskin abo'anjad g'ulomiman, Ishim qilmoq duoi sidq ro'zu shab anga, yo Rab"*, 466-g'azalida *"Tabibiykim, abo'anjad g'ulomi kamtarinidur, Oni qil, xizmatida borho nazm ila madhxon"*, 475-g'azalida *"Muruvvatdinmu solmoq emdi ko'zdinkim abo'anjad, Sari xoni navolingdin g'ulomi luqmaxoringman"*, 479-g'azalida *"Miskin Tabibiykim, abo'anjad g'ulomidur oning, Lutfi inoyoti sori qilg'il oni doim qarini"* 599-g'azalida *"Mango boqma haqorat birlakim, man ham Tabibiydek, Abo'anjad g'ulomi shohi davrondurman, ey soqiy"* kabi misralarni uchratish mumkin. Bunday baytlarni shoirning turkiy (o'zbek) tilidagi she'rlari jamlangan ikkinchi devoni *"Hayratu-l-ushshoq"* da ham uchratish mumkin. Masalan, *"Hayratu-l-ushshoq"* devonidagi 510-g'azal quyidagicha yakunlanadi:

*Tabibiykim aboi anjad g'ulomi xonazodingdur,  
Iloho, madhinga ul shoiri vaqti shior o'lsun.*

Ilmiy izlanishlar natijasida Ahmad Tabibiy tomonidan



"Tavorix al-xavonin" ("Xonlar tarixi") degan tarixiy asar yozilgani aniqlandi<sup>1</sup>. Asar maxsus debocha bilan boshlanadi. Jumladan, debochada quyidagilarni o'qish mumkin: *"Bismillohir Rahmonir Rahim! Hamdi bag'oyat va sanoe bilo nihoyat ul Podshohi alal itloq va xudoyi Razzoq dargohig'a boistadurkim oning vujudig'a ne ta'rix i ibtido paydo va ne Xoliqliqig'a zamoni intiho. Bemisl, bechun, besharik, berahnamun, avval va oxir va zohir va botin Uldur "kamo fiy qavlihi taolo huvallohul avvalu val oxiru vaz zohiru val botin laysaka mislihi shay'un va huvas sami'ul basir..."*.

Debochada kitob muallifi o'zini:

*"Ammo bu ovoni behjat iqtironida ushbu faqiru haqiru kasiru taqsir a'jaz ibodul malikul ahad Ahmad al-mutaxallis bit-Tabibiy inb Hoji Ali Muhammad g'afarollohu zunubihimo va satara uyubihimokim, bu xonadoni oliyning abananjaddi bandai qadimiysi va bu dudmoni mutaoliyning afgandayi samimisi erdi"* [Tabibiy, 3] – tarzida tanishtiradi.

Asarning yozilish va uning nomlanishi haqida esa quyidagilarni yozadi: *"Ongo ishorati oliya va bashorati nomutanohiya nizomul-mulku val-millat vazir sohibi tadbiri ioratdastgoh vazoratpanosida Islomxo'ja valadi arshad Ibrohimxoja marhumining vasotati bila mundoq sudur toptikim, jahon mulki xoblig' bila tav'am balki jam'i ashyo o'z vaqti bila bir-bir adamdur bas... Ammo bazoatim kam va istitoatim adab bo'lg'onliq jihatidin ko'unglima mustaribliq voqe' bo'lsa ham al-ma'muru ma'zur fahvosig'a amal etib zamini ubudiyat bo'sa qildim va bu ish shuru'in o'zimga mo'jibi davlati uzmo bildim. Janobi boriyi Taolo jalla sha'nuhudin ummid ulkim bu kitob og'ozin xayriyat bila anjom tammati davlatiga musharraf qilib podshohi mamduh hazratlari tab'ig'a maqbul qilg'oy. Omin va mon tavfiqi illo billo. Mahfiy qolmog'oykim, bu kitob besh bob bila murattab bo'lib, "Tavorix ul-xavonin" ismi bila mavsum bo'ldi"* [Tabibiy, 4].

Demak, ushbu asar Isfandiyorxon davrida Islom Xo'janing buyrug'iga ko'ra yozilgan. Qo'lyozma fabrika qog'oziga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Sarlavhalar, nazmiy qismlar va muhim voqealar nomi qizil rang bilan yozilgan. Qo'lyozma o'lchami 35x22sm. Tabibiyning ko'rsatishicha "bu kitob besh bob bila murattab bo'lib" [Tabibiy, 4], bunda Islom Xo'ja xonadonining tarixi ham yoritilishi kerak bo'lgan. Ushbu asaridagi ham muallif o'zini "Ahmad ibn Hoji Ali Muhammad" tarzida tanishtiradi.

Ushbu ma'lumotlar Ahmad Tabibiyning ijtimoiy kelib

<sup>1</sup>Ushbu asar Xiva "Ichon-qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy kotibi Komil Xudoyberganov shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.



chiqishi haqida aniq tasavvur beradi. Bu esa Xodim tazkirasidagi shoir biografiyasiga oid ma'lumotlar haqiqatga yaqin, degan taxminga asos beradi.

### **Tabibiy adabiy merosi adadi**

Ahmad Tabibiy adabiy merosi manbalarining tadqiqi shoirning mukammal va terma devonlari mavjud ekanini ko'rsatadi. Shoir o'z devoni debochasida quyidagi ma'lumotni keltiradi:

*"Maxfiy qolmasinkim bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on mudavvan kitobning jumlasini besh devondurkim, uch devon turkiy lafzi bilan fasohatorodur va ikki kitob forsiy alfozi bilan balog'at payrovdur. Avvalgi devong'akim sultoni oliyjah janobi mu'allo al qobig'a hadyalig' sababidin "Tuhfatu-s-sulton" deb tasmiya qilindi. Va ikkinchi devong'a ushshoq unsiyati jihatidin "Munisu-l-ushshoq" ismi bilan musammo bo'ldi. Va uchlanchi devong'a ishq holotin mu'oyana ko'rguzguvchi vajhidin "Mir'otu-l-ishq" oti bilan mavsum etuldi. To'rtlanchi devong'a oshiqilar o'qub mutolaa qilur hangomlarida hayratfazolig' mo'jibi bilan "Hayratu-l-ushshoq" deb ism berildi. Beshlanchi devonni bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo'lg'on boisi bilan "Mazharu-l-ishtiyoq" deb ataldi".*

Demak, Tabibiy beshta she'riy devon tartib bergan. Jumladan, uning "Tuhfatu-s-sulton", "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-ushshoq" devonlari turkiy tildagi lirik asarlardan tarkib topgan bo'lsa, "Mir'otu-l-ishq" va "Mahzaru-l-ishtiyoq" devonlarida shoirning fors-tojik tilidagi she'riy asarlari jamlangan. Bundan tashqari, shoir "Vomiy va Azro" dostonining o'zbekcha she'riy variantini yozdi. Eronlik shoir Vahshi Bofiqiyning "Nozir va Manzur" dostonini, ozarbayjonlik shoir Muhammad Fuzuliyning "Haft jom" asarini forsiydan o'zbekchaga tarjima qildi. Fuzuliyning tarjimasi ta'sirida o'zining "Yetti ravza" nomli asarini yozib, Xorazm shoirlari tazkirasini tuzdi.

Mumtoz she'r nazariyasiga doir manbalarda, jumladan, Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida she'r janr (nav'lari) haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: *"Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she'rning aqsomi, ulkim mo'tabardur, o'n nav' kelibtur: qasida, g'azal, qit'a, ruboiy, masnaviy, tarje', musammat, mustazod, mutavval, fard"* [Тарозий 1996, 32].

Tabibiy turkiy devonlari debochasida yana quyidagilarni yozadi: *"Alqissa, "Al ma'muru ma'zurun" hadisi mafhosicha bu xidmati zi saodatni joni ko'ngul bilan qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz'onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim. O'n nav'i nazmkim tashbib, g'azal, mustazod, musammat, ya'ni murabba'dan to muashsharg'acha,*

*tarje'band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard itloq qilurlar. Jam'i o'n rang guldurkim tab'iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog'lab huzuru vofiru-s-sarvarig'a yetkurdum. Hazrati vohibu-l-atoyo va g'ofiru-l-xatoyodin umid qilurmenkim maqbuli tab'i anvari va matbu'i xotiri safoparvari qilg'ay".*

Tabibiy devonlari tadqiqi shoirning bu mavzuga nechog'li keng o'rin ajratganini ko'rsatadi. Masalan, "Munisu-l-ushshoq" devoni debochasidan boshlab, devonning oxirigacha diniy-ma'rifiy mavzular aks etgan lirik asarlar ko'chirilgan. Shoir turkiy devonlari uchun yozgan debochasida o'nlab Qur'on oyatlari va hadisi shariflar uchraydi. Masalan, debochadagi quyidagi parchaga e'tibor qaratsak:

*"Jalla jalaluhu va 'amma navaluhu bisyor salavot amta'asi va beshumor tahiyat hadoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobig'a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig'a hadyai takror alat takrordurkim "Ana afsahu..." gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va "Ana amlahu..." shakkaristonining to'tiyi shirin maqoli va malihlisonidur bovujud muncha fasohat va balog'at va muncha mu'allo daraja va martabat bila ham "al faqru faxri" hadisig'a notiq "Ma 'arafnaka haqqo ma'rifatika" mazmunig'a shoyiq erdi "Ya ayyuhar rasulu ballig' ma unzila ilayka..." karimasi mazmunining xitobi mustatobi mo'jbincha kutubi osmoni va suhufi Rabboniyning mazomin aynaqa va ma'niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ongo muttale' va muttabe' erdi. Fasohatbayon lison va balog'at tarjemoni zabon bila taqdir zuhurg'a kelturdi "va ma alar rasuli illal balag'u..." mafodincha ulchakim tengri taolo va taqaddasa hazratidin ahkom va bayyina va masoili yaqiniya tablig'ig'a ma'mur va marsul bo'lmish erdi. Kalom gavhari intizomi bila "Qulu amanna billahi va ma unzila ilayna..." mazmunin zuhurg'a yetkurub tabiat zulmatobodi sargashmalarin ogohlig' shahristoni shoh rohi tarafig'a boshqarib: "Haza sirotiy mustaqiman fattabi'uhu" ishorati bila dini islom tariqi sulukig'a buyurdi".*

Bu bitta parchadagi misol. Bundan tashqari, debocha hamd, na't, chori yorlar tavsif etilgan nazm namunalari bilan boyitilgan. Ta'kidlash kerakki, Tabibiy debochasi to'liq oyat va hadislardan iqtiboslar asosida bitilganki, bu hol devonning badiiy qimmati nechog'li baland ekanini ko'rsatadi. Shoir devonlaridagi aksariyat g'azallarda oyat va hadislarni singdirib yuborgan. Shoir ijodida Qur'on oyatlari va payg'ambar (s.a.v.) hadislari to'g'ridan-to'g'ri g'azallarda hamd, na'tlar orqali hamda chori yorlar tavsif etilgan "Ey vujudingg'a emas zohir zamoni ibtido", "Zihi ermas vujudingg'a

*azal satrida had paydo*, "Zihi bor qudrating osoridin kavnu makon paydo", "Sano bo'lsun ongakim bordurur ul Qodiri Yakto", "Izhor qudrat aylabon, ey Xoliqi arzu samo", "Zihi jamolingga mazhar erur hama ashyo", "Zihi sun'ing bila ashyo ikki olam aro paydo", "Zihi vujudinga yo'q vaqti ibtido paydo", "Ey jumlai guruhi nabilarga peshvo", "Assalom, ey shahriyori, hoshimiy Makkiy laqab", "Ey berib, me'roj izzu rutbasin tangri Sango", "Zihi sanga beribon Tangri rutbai darajot" g'azallar bilan boshlanadi. Yana, shoirning kichik lirik janrlarga oid lirik asarlarida ham ushbu mavzu yetakchilik qiladi. Quyida Ahmad Tabibiyning o'z devonlari uchun yozgan debochasi matni tabdili to'liq keltirildi:

### **"Debochai Tabibiy"**

#### ***"Bismillohir-Rahmonir-Rahim"***

Hamdi bag'oyat va sanoye benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig'a loyiq va sazovor va borgohig'a tuhfa va nisordurkim mumkinot nazmin adami tab'idin qudrat aruzi kamoli bila vujud devonig'a kelturuvi inson vujudi majmuasi g'azaliyotig'a borcha masnuotdin ziyodaroq badoye' va sanoye' izhor etib tilin har turluk nutqg'a notiq va mezoni tab'in anvoi' suxanni sanjida qilmoqg'a loyiq erkonin bildurdi.

#### **Nazm:**

*Qodirikim hama jahon yaratib,  
Onda har nav' insi jon yaratib.*

*Borchadin ashraf aylab insonni,  
Bildurub oncha rozi pinhonni.*

*Ko'nglin etti ulumg'a loyiq,  
Tilini qildi nuqtaga notiq.*

*Toki hamdig'a bo'lsun ul zokir,  
Borcha ahvolig'a bo'lub shokir.*

*Budurur qudrat Xudoyi Karim,  
Ki erur vasf ongo sami'un aliyim.*

*Har nekim bordur oshkoru nihon,  
Borchasi keldi oni sun'i O'g'on.*

*Shohidi sun'i keldi masnuot,  
Mazhari ilmi jumla ma'lumot.*

Jalla jalaluhu va 'amma navaluhu bisyor salavot amta'asi va beshumor tahiyat hadoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobig'a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig'a hadyai takror alat takrordurkim "Ana afsahu..." gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va "Ana amlahu..." shakkaristonining to'tiyi shirin maqoli va malihlisonidur bovujud muncha fasohat va balog'at va muncha mu'allo daraja va martabat bila ham "al faqr-u faxri" hadisig'a notiq "Ma 'arafnaka haqqo ma'rifatika" mazmunig'a shoyiq erdi **"Ya ayyuhar rasulu ballig' ma unzila ilayka..."** karimasi mazmunining xitobi mustatobi mo'jibincha kutubi osmoni va suhu-fi Rabboniyning mazomin aynaqa va ma'niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ongo muttale' va muttabe' erdi. Fasohat-bayon lison va balog'at tarjimoni zabon bila taqrir zuhurg'a kelturdi **"va ma alar rasuli illal balag'u..."** mafodincha ulchakim tengri taolo va taqaddasa hazratidin ahkom va bayyina va masoili yaqiniya tablig'ig'a ma'mur va marsul bo'lmish erdi. Kalom gavhari intizomi bila **"Qulu amanna billahi va ma unzila ilayna..."** mazmunin zuhurg'a yetkurub tabiat zulmatobodi sargashtalarin ogohlig' shahristoni shoh rohi tarafig'a boshqarib: **"Haza sirotiy mustaqiman fattabi'uhu"** ishorati bila dini islom tariqi sulukig'a buyurdi.

**Nazm:**

*Rasulikum edi guftori afsah,  
Oning har lazzati ming jondin amlah.*

*Hama hayli rusulning podishohi,  
Bo'lub makshuf asrori ilohiy.*

*Boshida garchi erdi toji "Lav lak...",  
Tilida erdi lekin "Ma 'arafnok".*

*Kelib husni mah avji hidoyat,  
Dog'i shahanshohi mulki risolat.*

*Guvohi nuri husni "Va-z-zuho" dur,  
Sochi "Va-l-layl" ta'rifi bajodur.*

*"Fauhiya" sharbatidin la'li shirin,  
Ko'zi "Mazog'a-l-basar" g'a keldi tazyin.*

*Oningdek rutbai oliyg'a yetdi,  
Nabiylarni o'zig'a chokar etdi.*

*Erur chun manzilatda shohi kavnayn,  
Kelib qurbig'a shohid "Qoba qavsayn".*

*Uruj etkan chog'ida shomi Me'roj,  
Anga bo'ldi munavvar dini minhoj.  
Jami mo'jizoti mo'tabardur,  
Biri ul jumlaning shaqqul qamardur.*

*Bayong'a nechakim til bo'lsa mohir,  
Erur ta'rifin aylar chog'da qosir.*

*Ilohi ul habibing hurmatidin,  
Oni topqon maqomi rif'atidin.*

*Nasibimizni andin qil inoyat,  
Ki ya'ni ro'zi Mahsharda shifoat.*

*Nechakim bor euru af'olimiz shum,  
Vale sen qilma andin bizni mahrum.*

Va yana behad salom va salovot va beadam durudi tahiyot va avlodi va as'hobi va ahfodi va ahbobi kiromig'a bo'lsunkim, "As'habi kannujumi al iqtidau val ihtidau bi ayyihim iqtadaytum ihtadaytum" adosi va javohiri mashhun mazmuni fahvosincha tuz yo'l soliklari ollida har birlari iqtido burjining duraxshanda axtari va ihtido durjining to banda gavharidurlar, xususan, ul hazratning oliy miqdor saodatosor chahoryori izomig'a bo'lsunkim gavhari ummoni valoyat va nujumi osmoni hidoyatdurlar va shariati g'arroi Ahmadi va millati bayzoi Muhammadiyning to'rt rukni a'zami va to'rt devori mustaqimidurlar. Ul jumlaning avvali va afzali va asdaq hazrat Abu Bakr Siddiq roziyollohu anhukim yori g'ori bo'lub soniyi isnayni "**avhumo filg'ori...**" oning sha'nida nozil va avvali tasdiqi islom qilg'oni ham siddiqlig'ig'a dalili komildur.

**Nazm:**

*Chu yori avvalin Bu Bakri Siddiq,  
Safo jomidin ichkan rohi tahqiq.*

*Diyonat durji ichra durri g'alton,  
Sadoqat avji uzra mehri raxshon.*

*Bo'lub shomil anga lutfi ilohi,  
Xilofat masnadin avvalg'i shohi.*

*Anbiyog'a aningdek yor erur kam,  
Xalo birla maloda shaxsi maxram.*

*Mafuzi zotig'a keldi diyonat  
Fi'olig'a musallamdur sadoqat.*

*Oning bu rutbasi bor asru foyiq,*

*Ham istehsong'a har vajah ila loyiq.*

*Binoi shar' rukni a'zamidur,  
Mukarram haylining ham akramidur.*

Va ikkilanchi hazrat Umar ul-foruq roziyollohu anhukim alarning a'dali va rusumi hukumatda akmalidur.

**Nazm:**

*Ikkinchi amiri xilofat Umar,  
Hukumatda koni adolat Umar.*

*Bo'lub xavfi ta'ziridin bahri Nil,  
Ravonlig' ul nav'ikim salsabil.*

*Ki ya'ni erur jori bir hol ila,  
Taqrir topub har mahi sol ila.*

*Tutub yer yuzin adlining savlati,  
Ko'ngullarga larza berib hay'ati.*

*Sifoti kelib qotili mushrikin,  
Baland o'ldi asrida a'lomi din.*

*Ne butxonau butdin o'lsa hisob,  
Nasibi sa'yidin bo'ldi jumla xarob.*

*Bino topdi mehrob minbarisi,  
Masojidg'a zeb ila zevarisi.*

*Laqab keldi Foruq anga muttafiq,  
Bo'lub zohir ollida butloni hiq.*

*Bo'lub odati sarf oning borho,  
Qilurg'a masofu jihat va g'azo.*

*Qoshida qilib kufr eli iztirob,  
Tushar erdi ajsomig'a larzu tob.*

*Bu vajah ila din kishvarin sarbasar,  
Musahhar etib bo'ldi oliy guhar.*

Uchlanchi hazrati Usmon zunnurayn roziyollohi anhukim hilmu hayoning koni va jomi' avroqi kalomi Rabboniydur.

**Nazm:**

*Ulki vasfi jomi' ul Qur'on erur,  
Bilgil oni hazrati Usmon erur.*

*Ma'dani hilmu hayo ta'rifidur,  
Manba'i judu saho tavsifidur.*

*O'zi yordur jumla yoron ahlami,*

*Keldi Haq marg'ubi xalq a'zami.*

*Bor anga ta'rifi zunnuraynlig',  
Topti to tashrifi zunnuraynlig'.*

*Mustafog'a ikki yo'l domod edi,  
Ikki olam ham anga obod edi.*

*No'sh qildi chun shahodat sharbatin,  
Totdi Kavsar sharbatining lazzatin.*

*Ko'ngli sof ul nav'ikim mirot o'lub,  
Hilmi har af'olidin isbot o'lub.*

To'rtlanchi hazrat Ali karramallohi vajhahukim sohibi sayfi zulfiqor ashja'i Duldulsuvor sur'at paymoi maydoni "Lofato", "Qotilil mushrikin va kofirin fi yavmil jihadi val g'azo" dur.

**Nazm:**

*Aliyul Murtazo 'ammu payg'ambar,  
Shijoat arsasida sheri safdar.*

*Kelibdur jome'i tavhidi asror,  
Jami'i ilm ila fandin xabardor.*

*Jihad amri uchun gar minsa Duldul,  
Tushar kuffor hayli ichra g'ul-g'ul.*

*Naziri ilmu fanda yo'qdur aslo,  
Rasululloh anisidur mudomo.*

*Payg'ambar dedikim: "Men kishvari ilm,  
Ali lekin anga bo'lmish dari ilm".*

*Faroiz ilmig'a yorutti ma'dan,  
Shijoatg'a kelib holoti ma'dan.*

*Nabiyuno birladur bir jonu bir tan,  
Nabiyuno dushmanidur anga dushman.*

Va yana salomu farovon va tahiyyoti bepoyon va ul jigar-go'shai rasuli kavnayn va ul nuri nurul aynlarg'a bo'lsunkim, birining ismi va kunyati Abu Muhammad al-Hasan va birini Abu Abdulloh al-Husayndur roziyollohu taoli anhumo.

**Nazm:**

*Humuli ikki ozodai fozilayn,  
Kidurlar nabiyuno uchun nuri ayn.*

*Biri mehri avji saodat edi,  
Biri shohi mulki shahodat edi.*



*Xavorijdin asru suubat ko'rub,  
Dema jonlari lahza rohat ko'rub.*

*Chekib tashnalik ranjini behisob,  
Dame bo'lmayin dahraro komyob.*

*Ko'rub ummat uchun azobu ano,  
Zamoni malolatdin o'lmay judo.*

*Ilohi hamul yorlar hurmati,  
Baliyatg'a duchorlar hurmati.*

*Karam birla qil jurmimiz mag'firat,  
Boq ahvolimizg'a etib marhamat.*

*Alardin shafolat nasib aylagil,  
Hamisha hidoyat nasib aylagil.*

*Agarchi erur jurmimiz beshumor,  
Ummidi shafolat vale bizda bor.*

Va sallollohu ala alihi va as'habih va avladihi va ahfadihi va ahbabih ajma'in ila yavmiddin ammo ba'd balo mayxonasining bodano'shi jafu paymonasining mastu madhushi malomat ko'chasining benangi ori va malolat rishtasining sohibi ajzu inkisori va ishq vafo yo'lida borho sobitqadam parivashlar jafosidin doimo asiri alam.

**Nazm:**

*Tushub bo'ynig'a ishq ichra kamandi,  
Hamisha dardu kulfat yori bandi.*

*Balo dayrining o'lg'on boda xori,  
Qilib jonni parivashlar nisori.*

*Vafo ichra qilib sobitqadamlig',  
Bo'lub dildordin tuni kun sitamlig'.*

*Bu odatdin topib fayzi futuhi,  
Bo'lub ishq ila doim toza ruhi.*

*Sharobi ishqni aylarga odat,  
Tilab g'am chekmagin har dam ziyodat.*

*Bilib bechoralig'ni o'zga chora,  
Tarabni tark qilg'on bora-bora.*

*Parishonlig' chekib bir dilrabodin,  
Dame ayrilmag'on ranju anodin.*

Nokomlig' bodasining sargardoni va beoromlig' zoviyasining

majnuni hayroni ahqaru-l-ibod mulku-s-samad va aqsari umam hazrati Muhammad ibn hoji Ali Muhammad almutaxallis bit-Tabibiy Ahmad g'afarollohu zunubahumo va satara uyubohumo o'z ahvalidin bu nav' ajz va qusur bila takallum surar va o'z ishtig'olidin mundoq taqdir va favr bila nuktadonlar arosida dam urarkim chun zamoni behjat iqtironi Xivaqi Firdavs xavarnaq shahrining mamlakat manba'i fayzi haqqi hazrati saltanatdastgoh mutaoliy joygoh xilofatpanoh Iskandar hashmat Sulaymon martabat xurshid manzilat gardun rif'at ma'lo alqob Jamshid janob.

**Nazm:**

*Shahanshohiki hashmatda Sikandar,  
Anga kelmish g'ulomi amr gustar.*

*Abo anjad salotini jahondur,  
Ulus boshi uza zilli O'g'ondur.*

*Inoyotu sahovat manba'idur,  
Adolotu muruvvat matla'idur.*

*Chu shar' oyinini yaxshi bilibdur,  
Rivoji shar' oyini kelibdur.*

*Yana asrida ko'b topdi masojid,  
Madoris birla anvo'i ma'obid.*

*Kitob o'ldi necha asrida ta'lij,  
Necha devoni nazmi, nasri, tasnif.*

*Gahi fozilg'a pasha nuktada tablig',  
Gahi atrok sori tarjimonlig'.*

*Qayu insonki bu dam keldi fozil,*

*Bu vajah ila oning asrida tun-kun.*

*Suxandon hayli bo'ldi haddin afzun.*

Sarvari salotini olam sardaftari xavoqini muazzam saltanat burjining oftobi olamtobi makrumat durjining gavhari noyobi xilofot farqining afsari gavhar yarosi jalolat tojining durri garon bahosi malozil muluki oliyjoht marj'i xavoqin davlatpanoh nosibi rioyot millat bayzo rofe'alom shariati g'arro hodimi asosi zulm va shiqoq mohiyi osori kufr va nifoq, madanul adolat va sahovat malikul mamlakati vas-saltanat mu'izul millati vad-davlat almuayyidu tabayudotil mulk almannon val muntasiru binusratil hayyil mustaon xalifatur Rahmon zilli Subhon Abulmuzaffar val Mansur abul fath Sayyid Muhammad Bahodirxon soniy domo umruhu va iqbolihu va zayyada davlatahu va ijlahuning hatai ixtiyori va qabzai iqtidorida

erdi va ul hazratning say'i va ko'shishlari doim ul avqot ulamo va fuzalo va shuaro izyodig'a masruf bo'lub bazl va baxshishlari aksar holot fusaho va bulag'o haylining sof e'tiqodig'a ma'tuf bo'lur erdi. Bu sababdin men dog'i altofi ehsonidin barumand bo'lg'ali shoyiq va jonu ko'nglumni fuzalo ahvolotin tamosho qilurda taassufg'a loyiq bilib ulamo va fuzalo xizmatin ulchakim mumkin erdi bajo kelturdum har majlisdakim fazl va donish sham'i ravshanlig' topsa anga parvona yanglig' o'zumni yetkurub lekin bebuzoatlig' va qillati istitoatlig' borho mone' erdi va beilmi donish jihatidin ko'bdin ko'b taraddudim zoe' erdi va ul hazratning gohi o'z tab'i latif va fikri shariflaridin nazmi jon fizo va she'ri dilkusho zuhurg'a kelganda fozili mudaqqiq va komili muhaqqiqlar iborati ma'noaro va mazomini diqqat piroyasin mafhumig'a yetib farqig'a taqsin va ofarin gavharlarin sochib duo va sano va til ochar erdilar. Ori fozil kimsa fuzalo va ulamonavoz bo'lub va ilmu ma'rifat kunhiga yetgan kishi ulamo bila suhbat tuzub nuqtaparvoz bo'lg'ay bovujud men ham bu xonadong'a bandai zamim va xizmatga sarafgandai qadim bo'lub aboanjad xonazoda g'ulomi pok e'tiqod erdim.

**Nazm:**

*Otam bu borgahg'a erdi banda,  
Onam bu ostong'a sarfikanda.*

*Bas emdi men erurman xonazoda,  
Bu ikkidin manga nisbat ziyoda.*

*Ne tong faxr aylasam ahli jahong'a,  
Ki bor men bandai shohi komrong'a.*

*Chu men bekasda qulluq nisbati bor,  
Jahon ahlini bilkull davlati bor.*

*Angakim yor esa qulluqda mansub,  
Saodat haylidan bo'lg'usi mahbub.*

Ammo jahl va nodonlig' kasratidin junun va parishonlig' shiddatidin bu gardunnishon ostonidin yiroq tushdum huzuru g'ofir us-sarvarig'a musharraf bo'lmag'onlig' hasratidin behuzurliqg'a tushdim. Baharhol ushbu g'ussaning dofe'i va bu illatning nofe'i bo'lmoq umidi bila gohi g'azal va gohi qasida va gohi muxammas mashqin qilib dargohi olampanohg'a yetkurub iltifoti shohona va 'atiyoti xusravonadin sharafyob va izzatmaob bo'lur erdim. Kam-kam mururi ayyom va inoyoti hayyi layonom bila kimyo asar nazarig'a manzur va kaminqullar qatorida otm mazkur bo'lub amsol va aqronlarim arosida sarafroz balki hama

fozillar ichida mumtoz bo'ldum. Bas, bu asnoda kunlardin bir kun g'oyati adolat va nihoyati marhamatidin ishorati oliya va bashorati jaloliyya bu hokisori zarravor tarafig'a andoq sudur toptikim hama ash'orimni jam' qilib devon tartibin tuzgaymen va ul murattabni janobi gardunmaobg'a tuhfa va hadiya yo'sinida ko'rguzgaymen va yana hamul onda va dubora haddin ziyoda otifat bila bu nav' kalomi maymanat anjom buyurdilarkim zodai tab'ing ya'ni bu ash'ori dilpising xohi qabih va yo xudmalih hama farzandi arjumanding balki tamomi jigarbandingdurlar. Bizga dog'i xonazod va bandai samimul e'tiqoddurlar. Bas alarni bu tariqa ovvora va parishon qilmoq va har kimning qo'lida pora-pora va sargardon qilmoq va muruvvatrasmidin yiroqda odamiyyat shevasidin uzoqdur. Nedinkim va andog'i hama ayon va nihoni nopoydordur. Lekin kalomi nasr va nazm har kimsadin yodgordurkim onga zamon osibi yetushmas va o'lmak savdosi oning boshig'a tushmas.

**Nazm:**

*Erur she'r farzandi shoir mudom,  
Jigar porasi balki keldi tamom.*

*Agar ul qabih o'lsun yo malih,  
Onga jumla farzandi bo'lg'ay sarih.*

*Jahon mulki chun bor emas poydor,  
Va lekin suxan bo'lg'usi yodgor.*

*Bas endi oning jam'i vojib erur,  
Mudavvan qilurg'a munosib erur.*

*Parishonlig'i marhamatdin emas,  
Oni hechkim dog'i yaxshi demas.*

*Har odamki ul qildi jam'i suxan,  
Jahon bazmida yoqdi sham'i suxan.*

*Yetushmas anga hech bodi xazon,  
Bo'lur balki jumla alamdin omon.*

*Ajal jismini garchi barbod etar,  
Xaloyiq va lekin oni yod etar.*

Chun bu guftori guharborni eshitdim joni hazinimg'a nishot va zamiri anduhginimg'a inbisot yetushdi. Ammo bebizoatlig'din sharmisor qilib istitoat jihatidin iztiror o'ti jonu dilimga tushdi, nedinkim devon tartibin tuzmak suxan jam'ig'a mayl ko'rguzmak har beilm va funun qo'lidin kelmas. Balki har devona va majnun oni bilmas.

**Nazm:**

*Qayu odamkim ul devona bo'lg'ay,  
Xiraddin borho begona bo'lg'ay.*

*Xalolig' topsa donishdan zamiri,  
Zamoni ilm bo'lg'ay dastgiri.*

*Nechuk ul aylagay tartibi devon,  
Ki ul bor shevai xayli suxandon.*

*Suxanning jam'i keldi asru mushkul,  
Ki oni qilg'usi albatta oqil.*

*Ne chora aylayin men zori mahzun,  
Ki ko'ngliga kelibdur jahli afzun.*

*Madad qilmas esa Tangri Taolo,  
Qila olurmi til bir harfinsho.*

Alqissa, "Al ma'muru ma'zurun" hadisi mafhosicha bu xidmati zi saodatni joni ko'ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz'onni bitkargali boshdin qadam qilib yeldim. O'n nav'i nazmkim tash(b)ib, g'azal, mustazod, musammat, ya'ni murabba'dan to muashshar-g'acha, tarje'band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard itloq qilurlar. Jam'i o'n rang guldurkim tab'iyat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog'lab huzuru vofir us-sarvarig'a yetkurdum. Hazrati vohibul atoyo va g'ofirul xatoyodin umid qilurmenkim maqbuli tab'i anvari va matbu'i xotiri safoparvari qilg'ay. Agarchi nazm va nasrim sadafidin ahqar, balkim xazafg'a barobardur. Ammo inoyat ko'zi bila boqib iltifoti partavin solsa qiymatbaho gavhar, balkim javhari jondin afzar bo'lg'usidur.

**Nazm:**

*Agar ahqar erur nazmim sadafdin,  
Sadafni demayin balkim xazafdin.*

*Vale ul vaqtkim aylab muruvvat,  
Qilurg'a lutf ila izhori shafqat.*

*Inoyat ko'zidin qilsa tamosho,  
Bahoda bo'lg'usi ul durri yakto.*

*Agarchi jurmdur, Yo Rab, menga fan,  
Vale sendin umid etkum oni man.*

*Ki qildim bu sifat guftori zohir,  
Shahimg'a qil oni mahbuli xotir.*

*Atosi jomi birla shodlig' ber,*

*Ko'ngulga g'ussadin ozodlig' ber.*

*Ilohi toki bor bu charxi davvor,  
Ilohi toki yerga sakan izhor.*

*Ilohi toki olamdur huvaydo,  
Ilohi toki anda xalq paydo.*

*Binoi davlati umrini doim,  
Baqo birla jahonda ayla qoim.*

*Ikki olamda komini ravo qil,  
Mu'inin podishohi anbiyo qil.  
Munavvar bo'lsun ayni adlidin dahr,  
Hamaga yetkur andin toabad bahr.*

*Nasibin ayla tun-kun ayshu ishrat,  
Zamirig'a yeturma huznu kulfat.*

*Anga iqboli davlat chokar o'lsun,  
Inoyoting hamisha yovar o'lsun.*

*Qilib hukmiga doxil yer yuzini,  
Salotin sarvari qilgin o'zini.*

*Bori shohlar anga bo'lsun mulozim,  
Mulozim yo'qki, o'trusida xodim.*

*Hamul odamki madhig'a til ochsa,  
Duo durrin oning farqig'a sochsa.*

*Oni altof birla komron qil,  
Atosi birla ko'nglin shodmon qil.*

*Til ochmas kimki madhig'a zamoni,  
Ilohi gungi lol bo'lsun zaboni.*

*Omin va yo Robbal a'lamin.*

Maxfiy qolmasinkim bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on mudavvan kitobning jumlası besh devondurkim, uch devon turkiy lafzi bila fasohatorodur va ikki kitob forsiy alfozi bila balog'at payrovdir. Avvalg'i devong'akim sultoni oliyjoh janobi mu'allo al qobig'a hadyalig' sababidin "Tuhfatu-s-sulton" deb tasmiya qilindi. Va ikkinchi devong'a ushshoq unsiyati jihatidin "Munisu-l-ushshoq" ismi bila musammo bo'ldi. Va uchlanchi devong'a ishq holotin mu'oyana ko'rguzguvchi vajhidin "Mir'otu-l-ishq" oti bila mavsum etuldi. To'rtlanchi devong'a oshiqlar o'qub mutolaa qilur hangomlarida hayratfazolig' mo'jibi bila "Hayratu-l-ushshoq" deb ism berildi.

Beshlanchi devonni bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo'lg'on boisi bila "Mazharu-l-ishtiyoq" deb ataldi.

Emdi nazar qilg'uvchi muhaqqiqi fozil va mutolaa qilg'uvchi mudaqqiqi komillardin rajoi vosiq va umidi sodiq uldurkim, agar so'z tartibi va ash'or tarkibida faqirning aybig'a ittilo topsalar marhamat yuzidin islohin tuzgaylar va yo aybpo'shlig' ko'rguzgaylar.

Ruboiy:

*Har kimki muni o'qub qilib istehson,  
Ruhimni duolar bila qilib shodon,  
Do'zax o'tidin qutqoribon oni Haq,  
Jannatda makonin aylasin obodon.*

Nukta Quroni majid va Furqoni hamid dog'i "**Va ma huva biqovli shoir**" oyotining "**Mo'si**" "**Moi nafiya**" bo'lg'onining sababi she'r va shoir mazammati uchun ermasdur, balkim ba'zi muonid va ko'tahnazarlar oyoti kalomi qadim va sura'i Kitobi Aziymni she'r deb aytmasunlar va she'rg'a isnod bermasunlar degan tanbehdur. Rasul alayhissalomnikim, Qur'on ahkomin xaloyiqg'a yetkurguvchidurlar shoir tuhmatin qilmasunlar degan tavsiyadur. Lekin she'r ul sifat ne'mat uzmodurkim har kimsaning komi ondin lazzatgir bo'lmas va andoq davlati kubrodurkim har inson tab'i andin bahrapazir bo'lmas. Nedinkim Qur'onda ham necha mavzuda nazm bila so'z voqe' bo'lubdur. Andoqkim "**Summa antum haulai taqtuluna**" va ba'zi hadis ham shoe' bo'lubdurkim "Man akroma oliman faqod akromani" va bir necha azizlardin va avliyo'i sohibtamizlardin ko'b kimsalar nazmogo'yilig' qilg'onlari ham shohiddur. Va yana shayx Farididdin Attor quddisa sirruhu buyurmishlar. Nazm: "*Shoiri xabari dilist az payg'ambari, Johilonash kufrxonad az xari*".

Oллоhumma marzuqna min ne'matihil uzma va ja'alna min davlatil kubro. Omin va yo Robbal a'lamin.

#### **Adabiyotlar**

- Аминий Муҳаммад Козим. *Ўзбек адабиётида шеърнинг шакл ва мазмун жиҳатдан турлари*. 1389/2007. Афғонистон-Форёб.
- Амонов, S. 2020. "Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisul-ushshoq" devoni nusxalari". *Oltin bitiglar-Golden Scripts* 1: 22-42.
- Bobojon, Tarroh - Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Каримова, Фариди. *Навоийдан кейинги даврда яратилган debochalari*. 2007. Наманган.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm. 1992.



- Табибий, Аҳмад. 1968. *Танланган асарлар*. Тошкент: Бадий адабиёт нашрети.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №6226.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3461.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Toshbosma*, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
- Тарозий, Шайх Аҳмад ибн Худойдод. 1996. *Фунун ул-балоба*. Тошкент: "Хазина".
- Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.
- Ганихўжаев, Фатхулла. 1978. *Аҳмад Табибий*. Тошкент: Фан.

## Tabibi's prelude

Shermuhammad Amonov<sup>1</sup>

### Abstract

Usually, introductions that written by the author, sometimes by others, are written in the introduction of divans. Factors that were became main reasons of the creation of divans, information that were based on the structure, humility and request of the author were described. Tabibi also wrote an introduction in the book "Munisu-l-Ushshaq" in this context. The text of this prelude has not yet been fully translated. In general, preludes are important in determining the poet's literary-aesthetic world.

Tabibi's book "Munisu-l-Ushshaq" is very large, and it includes ghazal, mustazad, murabba', mukhammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar, masnavi-saqinama, rubai, qasida, shiru shakar of our classical literature.

This article provides thoughts about the text of the debocha for Tabibi's divans and given the whole translation of the prelude.

**Key words:** *manuscript, source, debocha, divan, tazkira, biography, genre, poem.*

### References

- <sup>1</sup> *Shermuhammad N. Amonov* – Candidate of Philological Sciences, dotsent, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
- E-mail:** amonov@navoiy-uni.uz
- ORCID ID:** 0000-0002-3962-1774
- For citation:** Amonov, Sh. N. 2023. "Tabibi's prelude". *Golden scripts* 2: 16–39.

- Aminiy Muhammad Kozim. *O'zbek adabiyotida she'rning shakl va mazmun jihatdan turlari*. 1389/2007. Afg'oniston-Foryob.
- Amonov, S. 2020. "Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisul-ushshoq" devoni nusxalari". *Oltin bitiglar-Golden Scripts* 1: 22-42.
- Bobojon, Tarroh – Xodim. 2011. *Xorazm shoir va navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Karimova, Farida. *Navoiydan keyingi davrda yaratilgan debochalar*. 2007. Namangan.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm. 1992.
- Tabibiy, Ahmad. 1968. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Badiiy adabiyot nashryoti.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №6226.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3461.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyof. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
- Taroziy, Shayx Ahmad ibn Xudoydod. 1996. *Funun ul-balog'a*. Toshkent: "Xazina".
- Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.
- G'anixo'jayev, Fatxulla. 1978. *Ahmad Tabibiy*. Toshkent: Fan.